

RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA UZLUKSIZ TA'LIMNING VETERINARIYA SOHASI BILAN INTEGRATSIYASI

Narziyeva Nargiza Norkuziyevna

SamDVMChBU dotsenti, PhD

nargizanarziyeva09@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli jamiyat sharoitida uzluksiz ta'lim tizimini veterinariya sohasi bilan integratsiyalash masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda veterinariya ta'limida raqamli texnologiyalar, masofaviy o'qitish platformalari, sun'iy intellekt, elektron ta'lim resurslari va raqamli kompetensiyalarning o'rni ochib berilgan. Uzluksiz ta'limning maktabgacha, umumiy o'rta, professional, oliy va oliy ta'limdan keyingi bosqichlarida veterinariya sohasi bilan uzviy integratsiyani ta'minlash mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos, raqamli muhitda ishlay oladigan, innovatsion fikrlovchi veterinariya mutaxassislari tayyorlashda uzluksiz ta'limning ahamiyati asoslab berilgan. Maqola natijalari veterinariya ta'limini modernizatsiya qilish va raqamli transformatsiya jarayonlarini samarali tashkil etishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat, uzluksiz ta'lim, veterinariya ta'limi, integratsiya, raqamli texnologiyalar, elektron ta'lim, masofaviy o'qitish, raqamli kompetensiya, innovatsion ta'lim, ta'lim transformatsiyasi.

INTEGRATION OF CONTINUING EDUCATION WITH THE VETERINARY FIELD IN THE DIGITAL SOCIETY

Abstract. This article analyzes the issues of integrating the continuing education system with the veterinary field in the context of a digital society from a scientific, theoretical and practical perspective. The study reveals the role of digital technologies, distance learning platforms, artificial intelligence, e-learning resources and digital competencies in veterinary education. The mechanisms for ensuring seamless integration with the veterinary field at the preschool, general secondary, professional, higher and post-higher education levels of continuing education are highlighted. The importance of continuing education in training innovatively thinking veterinary specialists who are able to work in a digital environment and meet the requirements of the modern labor market are also substantiated. The results of the article are of scientific and practical importance in the modernization of veterinary education and the effective organization of digital transformation processes.

Key words: digital society, continuous education, veterinary education, integration, digital technology, electronic education, distance education, digital competence, innovative education, transformation education.

ИНТЕГРАЦИЯ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ С ВЕТЕРИНАРНОЙ ПРАКТИКОЙ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы интеграции системы непрерывного образования в ветеринарную сферу в контексте цифрового общества с научной, теоретической и практической точек зрения. Исследование выявляет роль цифровых технологий, платформ дистанционного обучения, искусственного интеллекта, ресурсов электронного обучения и цифровых компетенций в ветеринарном образовании. Подчеркиваются механизмы обеспечения бесшовной интеграции с ветеринарной сферой на уровнях непрерывного образования: дошкольное, общеобразовательное, профессиональное, высшее и послевузовское. Также обосновывается важность непрерывного образования в подготовке инновационно мыслящих ветеринарных специалистов, способных работать в цифровой среде и отвечать требованиям современного рынка труда. Результаты статьи имеют научное и практическое значение для модернизации ветеринарного образования и эффективной организации процессов цифровой трансформации.

Ключевые слова: цифровое общество, непрерывное образование, ветеринарное образование, интеграция, цифровые технологии, электронное обучение, дистанционное обучение, цифровая компетентность, инновационное образование, трансформация образования.

KIRISH. Global miqyosda raqamli jamiyatning jadal rivojlanishi ta'lim tizimini yangicha mazmun va shakllar bilan boyitishni talab etmoqda. Ayniqsa, yuqori mas'uliyat va aniq kasbiy ko'nikmalarni talab qiluvchi veterinariya sohasida uzluksiz ta'limni raqamli muhit bilan integratsiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda veterinariya mutaxassisidan nafaqat an'anaviy bilimlar, balki axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olish, raqamli ma'lumotlar bilan ishlash va masofaviy professional faoliyat yurita olish ko'nikmalari talab etilmoqda.

Raqamli jamiyat sharoitida uzluksiz ta'limning mazmuni. Uzluksiz ta'lim inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiluvchi uzviy tizim bo'lib, u shaxsning kasbiy va shaxsiy kamolotini hayot davomida ta'minlashga qaratilgan. Raqamli jamiyat sharoitida ushbu tizim elektron ta'lim platformalari, onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar va interaktiv o'quv muhitlari orqali yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Veterinariya ta'limida raqamli vositalardan foydalanish murakkab klinik jarayonlarni modellashtirish, kasalliklarni tashxislash bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkonini yaratadi.

Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar doirasida veterinariya ta'limini rivojlantirish, uning sifat va samaradorligini oshirish, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat rahbari tomonidan qabul qilinayotgan qaror va

farmonlarda veterinariya ta'limi tizimini modernizatsiya qilish, o'quv jarayoniga innovatsion pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etish, ta'lim, fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Fanlar integratsiyasi – bu o'quv jarayonida turli fanlar mazmunining bir-biri bilan uyg'unlashtirilgan holda o'qitilishi bo'lib, o'quvchilarda bilimlarning yaxlitligini shakllantirishga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan ta'lim usullari o'quvchilarga fanni chuqur tushunish, nazariy va amaliy bilimlarni bog'lash, muammolarni yechishda kompleks yondashish imkonini beradi.

Mazkur yo'nalishda veterinariya ta'limi tizimida o'quv jarayonini tashkil etishning yangi modellari shakllantirilmoqda. Jumladan, ta'lim muassasalarida zamonaviy laboratoriyalar, klinik o'quv bazalari, simulyatsion texnologiyalar va raqamli ta'lim platformalari asosida bo'lajak veterinariya mutaxassislarini tayyorlash mexanizmlari joriy etilmoqda. Davlat-xususiy sheriklik asosida ilmiy-ta'lim va amaliyot integratsiyasini ta'minlovchi o'quv-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida veterinariya sohasi bilan uzviy integratsiyani ta'minlash zamonaviy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur integratsiya veterinariya ta'limining izchilligi, vorisiyligi va amaliy yo'naltirilganligini ta'minlash orqali bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi:

Maktabgacha ta'lim bosqichida veterinariya sohasi bilan integratsiya, asosan, ekologik va biologik tasavvurlarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda bolalarda hayvonot olamiga nisbatan mehr-muhabbat, g'amxo'rlik va mas'uliyat hissini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Integratsiya mexanizmlari sifatida hayvonlar haqidagi elementar bilimlarni o'z ichiga olgan didaktik o'yinlar, kuzatish mashg'ulotlari, interfaol multimediali materiallar va tabiatga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyatlar qo'llaniladi. Bu jarayon kelgusida veterinariya sohasiga bo'lgan qiziqishning dastlabki poydevorini yaratadi.

Umumiy o'rta ta'limda veterinariya sohasi bilan integratsiya tabiiy fanlar — biologiya, kimyo, geografiya va ekologiya fanlari mazmuni orqali amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda o'quvchilarda hayvonlar organizmi, ularning salomatligi, kasalliklarning oldini olish hamda ekologik xavfsizlik masalalari bo'yicha tizimli bilimlar shakllantiriladi. Integratsiyani ta'minlash mexanizmlariga fanlararo loyihalar, amaliy mashg'ulotlar, maktab laboratoriyalari, veterinariya muassasalariga ekskursiyalar hamda kasbga yo'naltiruvchi darslar kiradi. Natijada o'quvchilarning kasbiy qiziqishlari aniqlanadi va ongli kasb tanlashga yo'naltiriladi.

Professional ta'lim bosqichida veterinariya sohasi bilan integratsiya bevosita kasbiy tayyorgarlikka yo'naltiriladi. Ushbu bosqichda veterinariya yo'nalishiga oid boshlang'ich kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Integratsiya mexanizmlari sifatida dual ta'lim, ishlab chiqarish amaliyoti, veterinariya klinikalari va xo'jaliklar bilan hamkorlik, kasbiy modullar asosida o'qitish hamda simulyatsion treninglardan foydalaniladi. Bu esa ta'lim mazmunining mehnat bozori talablariga mosligini ta'minlaydi.

Oliy ta'lim bosqichida veterinariya sohasi bilan uzviy integratsiya chuqurlashtirilgan kasbiy va ilmiy tayyorgarlik orqali amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda ta'lim, fan va amaliyot integratsiyasi asosiy mexanizm hisoblanadi. Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etilishi, klinik fanlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish, raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanish, xalqaro ta'lim dasturlari va akademik mobillik integratsiyani kuchaytiradi. Natijada mustaqil fikrlovchi, ilmiy salohiyatga ega veterinariya mutaxassislari tayyorlanadi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichida veterinariya sohasi bilan integratsiya ilmiy-tadqiqot va kasbiy rivojlanishga yo'naltiriladi. Ushbu bosqichda magistratura, doktorantura, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimlari orqali mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini doimiy yangilab borish ta'minlanadi. Integratsiya mexanizmlariga ilmiy loyihalar, innovatsion ishlanmalar, raqamli ta'lim platformalari, masofaviy kurslar va xalqaro ilmiy hamkorlik kiradi. Bu jarayon veterinariya sohasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlillar veterinariya ta'limi sohasida belgilangan vazifalarning to'liq va samarali amalga oshirilishiga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, veterinariya ta'limini boshqarish tizimida vakolat va funksiyalarning haddan tashqari markazlashganligi ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy mustaqilligini cheklamoqda.

Xulosa. Uzlaksiz ta'limning barcha bosqichlarida veterinariya sohasi bilan uzviy integratsiyani ta'minlash mexanizmlari ta'lim tizimining izchilligi va samaradorligini oshiradi. Mazkur mexanizmlar orqali veterinariya mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalari bosqichma-bosqich shakllanib, zamonaviy jamiyat va mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimini raqamlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlari.
2. Narzieva, N. N. (2019). Formation of research skills in general education school students based on basic competencies: ped. science...(PhD) diss. *Samarkand: SamDU*.
3. Alimova, S. G., Nargiza, N. N., Ikromjonovna, J. S., Lola, R. D., Isabayeva, D. K., & Sherali, Q. U. (2025). The Role of Educational Management in Improving the Quality of Teaching and Learning. *Cadernos de educação, tecnologia e sociedade Учёные: University of Minho*, 18, 187-194.
4. Narzieva, N. N. (2024). Development of research competencies in the conditions of integrated education in students on the base of a competent approach. *Current Research Journal of Pedagogics*, 5(2), 16-21.
5. Khusenova, N. I., Fayzieva, F. N., Narzieva, N. N., & Rajabova, G. R. (2019). THE CONTENT OF TEACHING LISTENING IN ENGLISH AT ELEMENTARY SCHOOL. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 45-47).

6. Hasanovna, S. K., & Nargiza, N. (2019). The advantages of teaching grammar through games. *Достижения науки и образования*, (6 (47)), 30-31.
7. Нарзиева, Н. (2017). Формирование исследовательских компетенции у учащихся на основе интегративного подхода. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 156-158).
8. Narzieva, N. N. (2017). Development of Education and Research Activity Profile Class Students on the Basis of Integrative and Personal Approach. *www.auris-verlag.de*.
9. Narzieva, N. N. (2023). DEVELOPMENT OF RESEARCH COMPETENCES OF VETERINARY SPECIALISTS IN THE MODERNIZATION OF VETERINARY EDUCATION. *International Journal of Engineering Mathematics (Online)*, 5(3).
10. Narzieva, N. N. (2023). OLIY TA'LIM O 'QITUVCHILARINING INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATINI INGLIZ TILI O 'QITUVCHILARI MISOLIDA TASHKIL QILISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI. 2016 No. 6 (100/1), 100(66), 5-10.
11. Narzieva, N., Namazova, U., & Ernazarov, T. (2022). FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE OF HISTORY TEACHERS IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (5), 171-173.
12. Ulugmurodova, G. F., Nurmanova, N. N. Z., & Musayeva, N. A. (2020). SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA INNOVATSION METODLAR ORQALI ALISHER NAVOIY ASARLARINI O'QUVCHILARGA O'RGATISH (1-SINF MISOLIDA). *Интернаука*, (29), 55-56.
13. Рахимов, Б. Х., & Нарзиева, Н. Н. (2016). ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВРЕМЕННОГО ПОДХОДА К ОБУЧЕНИЮ. In *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития* (pp. 356-360).
14. Назарова, Б., Нарзиева, Н., Умаров, Х., Машарипов, К., & Кулахметова, М. (2011). ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ. *Педагогические науки*, (1), 147-151.
15. Нарзиева, Н. Н., & Гаппарович, Х. А. ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАР АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЗЛАНИШ, ТАДҚИҚОТ МАДАНИЯТИНИ БОСҚИЧМА-БОСҚИЧ ШАКЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021*, 1, 528.